
“Neftchi” jamoasiga yangi bosh murabbiy va bosh direktor tayinlandi

Tojikiston futboli flagmani – Dushanbening “Istiqlol” jamoasi bosh murabbiyi sifatida faoliyat ko’rsatib kelgan Vitaliy Levchenko “Neftchi” jamoasi bosh murabbiyi etib tayinlandi. Levchenko bu lavozimda iste’foga chiqqan Ilhom Mo’minjonov o’rnida ish boshlaydi.

Bugun Viloyat hokimi, viloyat futbol federatsiyasi rahbari Xayrullo Bozorov, Farg’ona shahar hokimi, “Neftchi” klubi prezidenti Vosiljon Nazarov ishtirokida o’tkazilgan uchrashuvda “Neftchi” jamoasining yangi bosh murabbiyi jamoaga va muxlislarga tanishtirildi.

Viloyat hokimi “Neftchi” jamoasining birinchi davrada muxlislar kutgan natijani qayd etmaganiga e’tibor qaratib, yangi bosh murabbiyga jamoaga yangicha ruh, shijoat olib kirish bo’yicha o’z tavsiyalarini berdi.

UYeFA Pro litsenziyasiga ega 50 yoshli Vitaliy Levchenko tojik futbolining tarbiyalanuvchisi bo’lsada, asosiy futbolchilik faoliyati Ukrainada (“Dinamo” K, SSKA, “Tavriya” jamoalari) hamda Rossiyada (“Volgar”, “Dinamo” St, “Spartak” (Kostroma) va “Ural” jamoalari) o’tgan. Bir mavsum Xitoyning “Chanchun” klubi sharafini ham himoya qilgan. Tojikiston terma jamoasida 9 ta o’yinda maydonga tushgan.

2005 yildan murabbiylik faoliyati bilan shug’ullanib keladi. Ukrainaning “Knyaja”, “Arsenal”, “Desna”, “Yednist” jamoalarida, Ukraina yoshlar terma jamoasida murabbiylik qilgan. Tojikiston terma jamoasi murabbiyi, yoshlar terma jamoasi bosh murabbiyi sifatida faoliyat yuritgan. Tojikistonning, “Barkchi”, “Xo’jand” jamoalarida bosh murabbiy, Rossiyaning “Krilya Sovetov” jamoasida murabbiy bo’lgan. 2020 yildan Dushanbening “Istiqlol” jamoasini boshqarib keladi. 2021 yili OFK Chempionlar Ligasidagi debyut mavsumida guruh bahslarida birinchi o’rinni egallab, jamoasini 1/8 finalga olib chiqqan.

Bugun marosimda shuningdek, Muhsinjon Mehmonov iste’foga chiqarilgan Zohidjon G’ofurov o’rniga “Neftchi” klubining yangi bosh direktori sifatida tanishtirildi. Saidabzal Abdullayev esa “Neftchi” jamoasining matbuot xizmati yangi rahbari bo’lib ish boshladi.

Ma’lumot o’rnida, “Neftchi” futbol klubi 2022 yil Superliga uchrashuvlarida o’z imkoniyatlaridan oqilona foydalana olmay, ketma-ket mag’lubiyatlarga uchraganligi va turnir jadvalida oxirgi o’rinlardan biriga tushib qolganligi, rahbariyat va muxlislar ishonchini oqlay olmaganligi bois, jamoa bosh direktori Zohidjon G’ofurov hamda bosh murabbiy Ilhom Mo’minjonov o’z arizalariga binoan egallab turgan lavozimlaridan ozod etilib, iste’foga chiqarildi.

2022-07-04 11:41:54